



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI




**2025- YIL YANVAR
DASTLABKI MA'LUMOT**

Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natjalarini qo'shgan holda

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari


Qurilish korxonalari soni, birlikda



Qurilish sohasida faoliyat korsatayotgan korxon va tashkilotlar soni

2025-yil 1-fevral holatiga, birlikda

2025-yil 1-fevral holatiga O'zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxon va tashkilotlarning umumiy soni 27 908 tani tashkil etdi.



**O‘zbekiston Respublikasida faoliyat
ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari**

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya’ni 6 691 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 24,0 % i Toshkent shahrida joylashgan.

Qurilish korxonalari soni

2025-yil 1-fevral holatiga, birlikda

Toshkent sh.	6 691	
Toshkent	2 426	
Farg‘ona	2 115	
Samarqand	2 114	
Buxoro	2 041	
Qashqadaryo	1 943	
Surxondaryo	1 851	
Andijon	1 562	
Qoraqalpog‘iston R.	1 465	
Xorazm	1 445	
Namangan	1 307	
Navoiy	1 119	
Jizzax	1 089	
Sirdaryo	740	


Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

2025-yilning yanvar oyida, O‘zbekiston Respublikasida jami 11 755,4 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 117,9% ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘shish sur‘ati

■ hajm, mlrd so‘mda

■ o‘shish sur‘ati, % da



Ma’lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

Hududlar kesimida qurilish ishlari *yanvar oyida*

2025-yilning yanvar oyida hududlar kesimida, xususan, Toshkent shahri (3 646,4 mlrd so‘m), Toshkent viloyati (1 416,6 mlrd so‘m) va Qashqadaryo viloyatida (815,6 mlrd so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:


- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 74,6% ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 121,7% ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 14,5% ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,0% ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 10,9% ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 117,4% ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari hajmining o‘shish sur‘ati

yanvar oyida, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari ulushi

yanvar oyida



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 76,5% i yoki 8 990,0 mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



25,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari - **2 276,3** mlrd so‘m
jami nisbatan ulushi - 25,3 %



39,3 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - **3 529,4** mlrd so‘m
jami nisbatan ulushi - 39,3 %




35,4 %

Norasmiy sektor - **3 184,3** mlrd so‘m
jami nisbatan ulushi - 35,4 %


Yangi qurilish ishlari hajmining bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi

yanvar oyida, % da



Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi

yanvar oyida, mlrd so‘mda



2025-yilning yanvar oyida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm Toshkent shahri (2 450,4 mlrd so‘m), Toshkent viloyati (1 037,1 mlrd so‘m), Qashqadaryo viloyati (634,1 mlrd so‘m) va Farg‘ona viloyatida (588,1 mlrd so‘m) qayd etildi.

Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko‘rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish faoliyati bo‘yicha o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi”** ko‘rsatkichi qo‘llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 22,2% ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 14,5% punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 8,5% punktga kamayib 36,9% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,0% punktga kamayib, 40,9% ni tashkil etdi.

Bino va inshootlar qurilishining jami hajmi – 8 768,3 mlrd so‘m




2024- yilning mos davriga nisbatan o‘rinish sur‘atlari (% da)

Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko‘rsatkichlari

Ma’lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (87,1%), Qashqadaryo viloyati (80,7%) va Namangan viloyatida (79,1%) kuzatildi.

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishi hajmi

yanvar oyida, mlrd so‘mda




Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 21,0 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,8 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,2 % punktga ko'payib 79,0 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari kesimida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmlari va ulushi *yanvar oyida*




2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari (% da)

Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko‘rsatkichlari

Ma’lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (36,2%), Buxoro viloyati (27,0%) va Sirdaryo viloyatida (20,0%) kuzatildi.

Hududlar kesimida fuqarolik obyektlarini qurish hajmi

yanvar oyida, mlrd so‘mda



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo‘yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog‘ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o‘z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,0 % punktga kamaydi va 29,0 % ni tashkil etdi.


Qolgan 71,0 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ko‘paydi.

Korxonalar turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur‘ati

yanvar oyida



Jamiga nisbatan ulushi




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

Ma’lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (18,0%), Buxoro viloyatida (14,5%) va Namangan viloyatida (14,2%) kuzatildi.

Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi

yanvar oyida, mlrd so‘mda



Qurilish ishlari hajmining tarkibi


yanvar oyida, mlrd so'mda



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati


yanvar oyida



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2024-yil mos davriga nisbatan


104,9 %



Norasmiy sektor

2024-yil mos davriga nisbatan

104,9 %



Yirik qurilish tashkilotlari

2024-yil mos davriga nisbatan


202,8 %

**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan
qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari**


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 675,4 mlrd so‘mni tashkil etdi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 202,8 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 9,5 % ga ko‘payib, 22,8 % ni tashkil etdi.

**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan
qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi**

yanvar oyida



2024



2025

**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan
qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur‘ati**

yanvar oyida

81,7 %

oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

96,3 %

oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

81,6 %

oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

200,8 %

oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

202,8 %

oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

495,8

mlrd so‘m

2021

567,9

mlrd so‘m

2022

513,4

mlrd so‘m

2023

1 251,9

mlrd so‘m

2024

2 675,4

mlrd so‘m

2025


Yillar

**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan
qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari**

Ma’lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Qashqadaryo viloyatida (30,7 % i), Navoiy viloyatida (29,8 %) va Toshkent viloyatida (26,7 %) qayd etildi.

**Hududlar kesimida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**

yanvar oyida, mlrd so‘mda




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan
bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari**

2025-yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 46,7% i to‘g‘ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,1% punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,9% ni tashkil etgan holda 5 489,8 mlrd so‘m miqdorida qayd etildi.


**Kichik korxonalar va mikrofirmalar, tomonidan bajarilgan
qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi**

yanvar oyida



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan
qurilish ishlari hajmi va o‘shish sur‘ati**

yanvar oyida



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan
bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari**

Ma’lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Sirdaryo viloyati (71,6%), Andijon viloyati (61,6%) va Surxondaryo viloyatiga (60,1%) to‘g‘ri keldi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan
qurilish ishlarining hududlar kesimida hajmi**

yanvar oyida, mlrd so‘m




**Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish
ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari**

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 30,5% ni yoki 3590,2 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,9% ni tashkil etdi. Shundan 2774,3 mlrd so‘mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to‘g‘ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 106,0% ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 410,1 mlrd so‘mni va 96,0% ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta‘mirlash ishlari 405,9 mlrd so‘mni va 107,0% ni tashkil etdi.

**Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish
ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi**

yanvar oyida



**Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari
hajmi va o‘shish sur‘ati**

yanvar oyida




**Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish
ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari**

Ma’lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (739,2 mlrd so‘m), Toshkent viloyatida (561,2 mlrd so‘m) va Qashqadaryo viloyatida (309,7 mlrd so‘m) qayd etildi.

**Hududlar kesimida norasmiy sektor tomonidan
bajarilgan qurilish ishlari hajmi**


yanvar oyida, mlrd so‘mda



Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

Ma’lumot uchun: davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Samarqand viloyatida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 3,6% i), Andijon viloyatida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 2,5% i) va Qashqadaryo viloyatida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 1,4% i) qayd etildi.

Hududlar kesimida davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi *yanvar oyida, mlrd so‘mda*




Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi *yanvar oyida, mlrd so‘mda*




Hududlar kesimida nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Ma’lumot uchun: nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida (99,8%), Sirdaryo viloyatida (99,5%) va Buxoro viloyatida (99,5%) qayd etildi.



Hududlar kesimida nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi *yanvar oyida, mlrd so‘mda*



Qurilish ishlari Uslubiy tushuntirishlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta’mirlov ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o‘zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta’minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o‘rnatish, devorlarni ko‘tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o‘ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko‘rsatadi yoki ish jabhasini ta’minlaydi, ularni qabul qiladi va to‘lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog‘liq chuqur qidiruv burg‘ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo‘yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug‘ullanuvchi burg‘ulash tashkilotlarini o‘z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi
Tel. 71 203-80-00 (1161)